



INGLIZ VA O`ZBEK XALQLARIGA XOS LINGVO- KULTUROLOGIK HODISALARNING QIYOSIY TAHLILI

Munojatzon Umaraliyeva¹, Muyassar Tursunaliyeva²

¹ Ingliz tili va adabiyoti fakulteti katta o`qituvchisi, ² 1-kurs talabasi, FarDU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6570371>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-may 2022

Ma`qullandi: 10- may 2022

Chop etildi: 15- may 2022

KALIT SO`ZLAR

*lingvokulturologiya,
lingvokulturema, ideomatik
ibora, frazeologik birlik,
antroponimlar.*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada chet til va madaniyatini chambarchas bog`liq xolda o`rganishning nazariy va amaliy asoslari haqida so`z yuritilib, madaniyatning tilda o`z ifodasini namoyon etuvchi elementlari turli misollar orqali ifodalab berilgan

Ingliz va o`zbek tillarining grammatikasi va nutq madaniyatini qiyosiy o`rganish til o`rganuvchilarning lingvistik vositalardan foydalanishdagi bilim, qobiliyat va tajribalarining oshishida muhim hisoblanadi. Lingvokulturologiya esa tilni madaniy hodisa, tillar va madaniyatlarni o`zaro bog`liqlik predmeti sifatida o`rganadi. Tadqiqotchi V.N.Telia ham shunday yozadi:

“Lingvokulturologiya insonni, aniqrog`i, insondagi madaniy omilni o`rganadi. Demak lingvomadaniyat markazi madaniy hodisa sifatida insonning antropologik paradigmasiga xos yutuqlar majmuasidir”. Lingvomadaniyatshunoslik tarixi Vilgelm fon Gumboldtning g`oyalari bilan boshlanadi. Uning nuqtai nazariga ko`ra tilning madaniy zukkoligi va qurilishi bir-biriga bog`liq hisoblanadi. Keyin esa R.M.Keesing, V.Maslova, V.Karasik, V.Telia,

E.Levchenko kabi olimlar bu soha rivojiga o`z hissalarini qo`shdilar.

O`zbek tilshunosligida ham lingvomadaniyatshunoslik sohasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, A.Nurmonovning “O`zbek tilida lingvokulturologiya yo`nalishi”, Sayidrahimovanning “Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslariga oid ayrim mulohazalar”, D.Xudoyberganovanning “Matnni antropotsentrik tadqiq etish” kabi maqolalarini sohada olib borilayotgan izlanishlar fakti sifatida qayd etish mumkin.

Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo`lagini aks ettiruvchi so`zlar, frazeologik birliklar, so`z birikmalari, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Ma`lumki, madaniyatning tilda o`z ifodasini namoyon etuvchi leksika, asotir va rivoyatlar, rasm-rusum va



odatlar, ramzlar, tildagi o'xshatish va metaforalarda aks etadi. Lingvokulturologiya fanida nomlar madaniyatning ajralmas qismi sifatida keng o'rganiladi. Tilshunoslikda ismlarni o'rganuvchi bo'lim onomastika ya'ni nomshunoslik, kishi ismlari esa antroponimlar deb yuritiladi. Antroponimlarning yaratilishi muayyan xalqning ma'lum e'tiqod va qonuniyatlari asosida yuz beradi. Ismlar ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, ularda jamiyatning madaniyati va ijtimoiy hayoti aks ettirilgan bo'ladi. Har bir nom o'z "biografiyasi" va "geografiyasi" ga ega va har bir tarixiy davrning o'ziga xos ism berish odatlari mavjud. S.Kenjaye va o'zining nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek ismlarini bag'ishlov (Yulduz, Chaqmoq, Arslon), tasviriy ismlar (Bozorboy, Odina, Asad) va ism istaklar (Adolat, Donoxon, O'lmasxon) ga ajratib tasniflaydi.

Ingliz tilida ham shunday ismlarni uchratamiz. Masalan, Galsvorsining fantastik matnlari ("The Forsyte Saga", "The apple tree", "The first and last", "The Juryman") antroponimlarning strukturaviy xususiyatlarini o'rganish uchun asos bo'ladi. Unga ko'ra antroponimlar bir va ikki komponentli bo'ladi:

1. Ann –rahmdil, Emily- mehnatkash, Irene – tinchlik, Imogen – begunoh, Thomas – egizak;
2. Nikolay – nika (g'alaba) + laos (odamlar) – g'alaba odamlari.

Idiomatik iboralar umumiy so'z birikmalaridan turg'unligi, tarkibiy qismlarining tuzilishi, barqarorligi bilan farqlanadi. Idiomatik iboralar tilshunoslikda "frazologik birliklar" yoki "frazologizmlar" deb ataladi. Bunday birliklar odamlarning madaniyatini,

turmush tarzini to'g'ridan-to'g'ri aks ettiradi. V.A.Maslova milliy va madaniy xususiyatlarni aniqlashda idiomalarning muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Ular har bir milliy tilning ruhidir; ular tilning ruhini va xalqning o'ziga xosligini tasdiqlaydi. Frazologik birliklar atrofimizdagi dunyoni shunchaki tasvirlamaydi, ular uni sharhlaydi, baholaydi va bizning subyektiv munosabatimizni ko'rsatadi.

Lingvomadaniyatshunoslikni o'rganishning har bir bosqichida milliy-madaniy xususiyatga ega frazeologik birliklarni uchratishimiz mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi "musichaday beozor" idiomasi mos idiomani boshqa tillarda topish qiyin. Idiomaning analogik modeli milliy-madaniy konnotativ ma'noga ega. Lekin ingliz tilida biz shunga yaqin boshqa idiomani uchratishimiz mumkin: "As harmless as a dove". Buning ma'nosi "kaptardek zararsiz" deganidir. Bundan tashqari, ingliz tilida biz "die "so'zi o'rniga"to pass away, breathe one's last, gone to better place, go to the big place in the sky, step off "kabi frazali birikmalardan foydalanamiz. O'zbek tilida ham "die" ya'ni "o'lmoq" so'zi o'rniga bir qancha birikmalardan foydalanamiz: dunyodan o'tmoq, ko'z yummoq, olamdan o'tmoq. Ingliz tilidagi "Damon and Pythias" idiomasi o'laylik, u "juda yaqin do'stlar" degan ma'noni anglatadi. O'zbek tilidagi "ikkisining orasidan qil ham o'tmaydi" maqoli unga ekvivalent hisoblanadi.

Bundan tashqari, biz ingliz va o'zbek tilidagi maqollarni ham qiyoslashimiz mumkin. Bunda ikki xalqning madaniyati, urf-odatlari, turmush tarzidagi o'xshashlik va farqlar, shuningdek, ikki tilning lingvistik va pragmatik xususiyatlarini hisobga olish darkor. Ko'plab olimlar ingliz



va o'zbek maqollarining grammatik, semantik, uslubiy jihatlari bo'yicha ilmiy ishlar qilgan bo'lsalar-da, haligacha maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari to'liq aniqlanmagan. Demak, agar bilingual maqollarga nazar tashlasak, ingliz tilidagi "The dogs bark, but the caravan goes on" maqoli o'zbek tilidagi "It hurar, karvon o'tar" ga to'g'ri keladi. Ingliz tilida bu maqol ko'chma ma'noda qo'llaniladi: kimdir to'xtatmoqchi bo'lsa ham, hayot davom etaveradi. Shu o'rinda o'zbek maqoli o'ziga xos va ko'chma ma'noda qo'llangan. Ya'ni har bir inson xoh moddiy, xoh ma'naviy katta-kichik turli hayot qiyinchiliklariga duch kelsa ham o'z yo'lidan borishda davom etishi kerak. Taqqoslasak, hayotdagi to'siqlar va qiyinchiliklar – bu it, karvon esa ularga e'tibor bermay davom etuvchi inson.

"Do not count your chickens before they are hatched". Ushbu ingliz maqoli odatda inkor ma'noda ishlatiladi. Bu sodir bo'lishini aniq bilmaguningizcha, umid qilgan narsangizga yopishmaslikni anglatadi. O'zbek tilida esa "chuchvarani pishirib sana, jo'jani ochirib" maqoli unga ekvivalent hisoblanadi.

Idiomatik iboralarda tilning turli tomonlari ochib beriladi: diniy – axloqiy, ijtimoiy, mifologik, tarixiy. Bunday til birliklari dunyo tasviri va odamlar haqida turli bilimlarni yetkazadi. Buni B.Safaraliyev, G.Bakiyeva va N.Nasrullayevalarning tadqiqotida ko'rishimiz mumkin. Unga ko'ra, Injildagi o'ziga xos ismlar ko'p dunyo tillarida uchraydi va ular xristian dini bilan bog'liq. Ingliz frazeologiyasida ham injil frazeologik birliklarini uchratamiz: job's comforter (ayubning yupatuvchisi) – odamlarga tasalli berishga harakat qiladigan, ammo vaqti-vaqti bilan ularning

baxtsiz hayotlarini yana-da qiyinlashtiradigan odam; a man of blood-odam o'ldiradigan kishi; as poor as Job – juda kambag'al odam; Benjamin's mess – juda katta qism; a doubting Thomas – biror narsaga deyarli ishonmaydigan odam. Ushbu idiomalar adabiy matnlarda juda mashhur. O'zbek tilida "g'ofil banda" iborasi ko'p ishlatiladi va u "kelajagini bilmaydigan qul, Xudoning quli" degan ma'noni anglatadi. "If the mountain does not come to Mahomet, Mahomet must go to the mountain" maqoli ham islom diniga bog'liq bo'lib, unda oxirgi payg'ambar Muhammad (s.a.v) ismi tilga olingan (yevropa masalalarida Mahomet). Misollar ko'rsatganidek, diniy bilimlar idiomatik birliklar semantikasida taqdim etiladi va ularning talqinida muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, ingliz tili va o'zbek tilidagi so'zlarning talaffuzi ham so'zlar ma'nosiga ta'sir qiladi. O'zbek tilida so'zning oxirgi unlisini uzunroq talaffuz qilish va ingliz tilida gapdagi har bir so'zni urg'ulash va xushmuomalalik bilan ifodalash har ikki tilda nutqning samaradorligini oshiradi. Please va iltimos so'zlarini uzunroq talaffuz qilish so'zga ishontirishni kuchaytiradi. O'zbek tilidagi ba'zi so'zlarda oxirgi unlini uzunroq talaffuz qilish natijasida (kelaqo-o-o, beraqo-o-o) so'nggi undosh tushirib qoldiriladi, lekin ingliz tilida bu lingvistik hodisa ishlatilmaydi.

Har ikki tilda ham shaxs nomiga kichraytirish va erkalash qo'shimchalarining qo'shilishi (Ann-ie, Javlon-bek) nutqning ekspressivligini oshirishga xizmat qiladi. Ammo ba'zan o'zbek tilida shaxs ismiga -jon, -xon, -bek qo'shimchalarini qo'shganimiz holda ingliz



tilida kishilar ismi oldidan Mr, Mrs, Miss qisqartmalarini qo'llaymiz.

O'zbek tilida nutq ta'sirchanligini oshirish maqsadida takror so'zlardan foydalaniladi (qani-qani, oling-oling, keling-keling), ingliz tilida esa bunga teng ravishda so'z yoki so'z birikmasi qo'llaniladi (welcome, help yourself).

Ba'zan esa ikki tilda ham keraksiz so'zlardan (well, so, just/ anaqa, tavba) foydalanish nutq effektivligini kamaytiradi.

O'zbek tilida murojaatda amakijon, ukajon, xolajon so'zlari ta'sirchanlikni oshirgani

holda ingliz tilida sir, madam, dear so'zlari qo'llaniladi. Diniy so'z va iboralarga e'tibor qaratsak, o'zbek tilida umringdan baraka top, Alloh o'z panohida asrasin birliklari, ingliz tilida esa God bless you, be healthy so'zlaridan foydalaniladi.

Gumboldtning fikricha, tilning o'ziga xos xususiyatlari millatning o'zligiga ta'sir qiladi. Demakki, tilda madaniy o'ziga xoslik aks etib turadi. Yuqorida qayd etganlarimiz esa bundan bir parcha edi.

References:

1. Bozor Safaraliyev professor, Gulandom Bakiyeva professor, Nafisa Nasrullayeva professor. Linguocultural Aspect of investigation of English and Uzbek idiomatic expressions;
2. Haydarova Nodirabegim Ahtamjon qizi. Lingvocultural analysis of English and Uzbek medical phraseological units describing physiological processes (2020);
3. Khushnuda Batirovna Samigova, Farkhod Khabibullayevich Abdullayev. ERPA International Journal of Research and Development (IJRD) (2020);
4. Pardayeva Dildora Ilyos qizi, Yuldashev Akmal Gulyamovich PHD. Reflection of Nationality in English and Uzbek articles (2021);
5. Tursunov Shokirjon (ilmiy maslahatchi O.Saidahmedova). O'zbek tilidagi ba'zi antroponimlarning lingvomadaniy tasnifi.
6. M.M.Umaraliyeva, Linguoculturology as a developing part of linguistics. "Ёшлар – янги Ўзбекистон, янги ренесанс бунёдкорлари" мавзусидаги илмий-амалий анжумани.
7. Umaraliev, M. (2021). SOME CHALLENGES IN ENCOURAGING INDEPENDENT LEARNING. Academic research in educational sciences, 2(4), 1878-1882.
8. Muhayyo Umarova. (2021). THE ROLE OF CULTURE IN THE LEARNING ENVIRONMENT. Frontline Social Sciences and History Journal, 1(08), 90-99. <https://doi.org/10.37547/social-fsshj-01-08-14>
9. Галимуллина, Л. (2021). Некоторые особенности в переводе фразеологических единиц с английского языка на узбекский язык. Общество и инновации, 2(8/S), 205-213.